

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content  
Registration

# MUNDARIJA

## 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**  
Norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirish-  
ning istiqbolli yo'nalishlari
- 17 **MUSTAFAQULOV DILSHOD  
SALOMOVICH**  
Huquq prinsiplari va uning huquqiy tizimda  
tutgan o'ri

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 25 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**  
O'zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi  
davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni  
qo'llashning ayrim masalalari

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 39 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**  
Реформирование процесса защиты  
диссертаций в юридической науке  
как императив развития правовой системы  
Узбекистана
- 49 **MAMANAZAROV SARDOR  
SHUXRATOVICH**  
BIG DATA tushunchasi va huquqiy tabiati
- 57 **МАХАМАДХУЖАЕВА МУНИСАХОН  
НЕЪМАТХУЖАЕВНА**  
Особенности цифрового гражданского  
оборота и защиты цифровых прав

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH.  
KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 64 **ЕРНИЯЗОВ ИСЛАМ РУСЛАНОВИЧ**  
Взаимодействие международных строитель-  
ных контрактов и договоров об инвестициях:  
возможности для гармонизации коммер-  
ческих и общественных интересов

- 76 **ABDURASULOVA QUMRINISA  
RAIMKULOVNA**  
**BURANOVA RAZIYA YERMAHAMED QIZI**  
Jinoyatchilikni prognoz qilish va uni amalga  
oshirish metodlari

- 88 **HAKIMOV KOMIL BAXTIYAROVICH**  
Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib  
qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini  
aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari

- 98 **BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH**  
Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning  
sabablariga doir ilmiy yondashuvlar

- 106 **ISMAILOV AHMAD ISMAILOVICH**  
Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish  
darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan  
shaxslarning kriminologik tavsifi

- 114 **SHONAZAROV ABDUVALI  
SHONAZAROVICH**  
Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli  
qog'ozlarni soxtalashtirish, ko'chirilgan  
dastxatlar, hujjatlarning o'zgartirilganligi  
bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

- 121 **ATANIYAZOV JASURBEK  
KURBANBAYEVICH**  
Jinoiy javobgarlikdan ozod etishda  
javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi  
asosi: muammo va yechimlar

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

131 **SAYFULLAYEV BAHODIR  
BAXROMOVICH**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan jinoyat ishlarida himoyachining ishtirokini takomillashtirish

140 **ЭРКАБОВЕВ АЗИЗБЕК АСИЛБЕКОВИЧ**

Интеграция Республики Узбекистан в глобальную систему контроля за наркотиками

---

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./AJYR5282>

UDC: 343.228(045)(575.1)

## ZARURIY MUDOFAA CHEGARASIDAN CHETGA CHIQUIB QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATI TARKIBINI ANIQLASH VA KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

**Hakimov Komil Baxtiyarovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va  
korrupsiyaga qarshi kurashish  
kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0002-4785-3233  
e-mail: hkb22@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, JKning 100-moddasida nazarda tutilgan odam o'ldirishning obyektiv tomoni quyidagi belgilar mavjudligi bilan tavsiflanishi, ya'ni: mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati; tajovuzchining o'limi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibat; harakatlar va ko'rsatilgan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish kabilar ham yoritib berilgan. Bundan tashqari, mudofaani qo'llash asosi sifatida tajovuz ijtimoiy xavfli harakat usuli bilan sodir etilishi hamda ijtimoiy xavfli tajovuzni harakatsizlik bilan qaytarish mumkin emasligi, ammo tajovuzchining salbiy ta'sirlaridan qochish, masalan, qochish, huquq-tartibot idoralariga yordam so'rab murojaat qilish orqali oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq fikrlar ham berilgan. Maqolada zaruriy mudofaa shart-sharoiti nafaqat jinoiy tajovuz, balki mudofaalanuvchining ushbu tajovuzni qaytarish kuchlari, vositalari va imkoniyatlari, shuningdek, tajovuzchi va mudofaalanuvchining kuchlari nisbatini belgilaydigan boshqa obyektiv omillarni ham o'z ichiga olishi hamda nisbatan qulay va noqulay himoya sharoitlari farqlanishi, bu zarar yetkazishning chegaralari va ulardan chetga chiqishga sezilarli ta'sir qilishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** ayb, zaruriy mudofaa, chegarasidan chetga chiqish, mudofaa, tajovuz, qasddan, odam o'ldirish, jinoyat, jazo, javobgarlik.

## ВОПРОСЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И КВАЛИФИКАЦИИ СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА С ПРЕВЫШЕНИЕМ НЕОБХОДИМОГО ПРЕДЕЛА ОБОРОНЫ

**Хакимов Комил Бхтиярович,**  
доктор юридических наук, доцент кафедры  
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы определения и квалификации преступления умышленного убийства, выходящего за пределы необходимой обороны. Также в статье объективная сторона убийства, предусмотренного статьей 100 УК, характеризуется наличием следующих признаков, а именно: общественно опасного поведения подсудимого;

общественно опасного последствия в виде смерти агрессора; причинно-следственной связи между действиями и указанными последствиями. Кроме того, в статье необходимая защита указывается как отражение агрессии. Основанием для применения обороны является совершение агрессии посредством общественно опасных действий, при этом общественно опасная агрессия не может быть отражена бездействием, а последствия возникают в результате уклонения от негативного воздействия агрессора, например побега, обращения за помощью в правоохранительные органы. Есть авторское мнение о том, как этого не допустить. Также в статье к необходимым условиям защиты автор относит не только преступную агрессию, но и силы, средства и возможности обороняющегося для отражения этой агрессии, а также другие объективные факторы, определяющие соотношение сил агрессора и обороняющегося, различает относительно благоприятные и неблагоприятные условия обороны, указывает пределы ущерба, а также существенные последствия отклонений от них.

**Ключевые слова:** вина, самооборона, посягательство, оборона, посягательство, умышленное убийство, преступление, наказание, ответственность.

## ISSUES OF IDENTIFICATION AND QUALIFICATION OF THE CRIME OF PREMEDITATED MURDER WITH EXCEEDING THE NECESSARY LIMIT OF DEFENSE

**Khakimov Komil Bakhtiyarovich,**

Tashkent State University of Law,  
Associate Professor of the Department "Criminal Law,  
Criminology and Anti-Corruption", Doctor of Law

**Abstract.** This article analyzes the issues of determining and qualifying the crime of intentional homicide, deviating from the limits of the necessary defense. Also, in the article, the objective side of murder, provided for in Article 100 of the Criminal Code, is characterized by the presence of the following signs: socially dangerous behavior of the defendant; a socially dangerous consequence in the form of the death of the aggressor; and the causal connection between the actions and the specified consequences are also highlighted. In addition, the necessary defense in the article is to repel aggression. As a basis for the use of defense, the aggression is committed by means of socially dangerous actions, and the socially dangerous aggression cannot be repelled by inaction, but the consequences arise by avoiding the negative effects of the aggressor, for example, running away or turning to law enforcement agencies for help. There are also ideas about not allowing it. Also, in the article, the necessary conditions of defense include not only criminal aggression but also the forces, means, and opportunities of the defender to repel this aggression, as well as other objective factors that determine the ratio of the forces of the aggressor and the defender and distinguish relatively favorable and unfavorable defense conditions. These damage limits, as well as significant implications for deviations from them, are also stated.

**Keywords:** guilt, self-defense, trespass, defense, assault, intentional homicide, crime, punishment, liability.

### Kirish

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlik masalasini to'g'ri hal qilishda odam o'ldirish belgilari to'liq va aniq ochib berilishi zarur. Bunda, eng avvalo, Jinoyat kodeksining 100-moddasida nazarda tutilgan ji-

noyat tarkibini aniqlash uni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda o'z samarasini beradi.

Jinoyat tarkibi va uning barcha belgilarini to'g'ri tushunish hamda tatbiq qilish JKning 100-moddasi normasini aniq qo'llashning kafolatidir. Hozirgacha odamni zo'rlik bilan hayotdan mahrum qilish qandaydir g'ayritabiiy,

normal idrok uchun qiyin bo'lgan holat sifatida qabul qilinadi.

Biroq majburiylikdan o'zgani hayotdan mahrum qilish holatlari ham mavjud bo'lib, odamlar bunday faktlarni tushungan holda qabul qilishadi, chunki bunda qonunni buzgan va turli subyektlarning qo'riqlanadigan manfaatlariga noqonuniy tajovuz qilgan odamning o'limi haqida so'z boradi. Ko'pincha bunday tajovuzlar inson hayoti uchun xavfli bo'lgan zo'rlik bilan bog'liq yoki mudofaalanuvchi uchun kutilmaganda sodir etiladi. Bu mezonlarni hisobga olgan holda, tajovuzchini hayotdan mahrum qilish qonuniy va javobgarlikni istisno qiluvchi holat deb tan olinadi.

#### **Material va metodlar**

Mazkur maqolada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqot natijalari**

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish o'ziga xos xususiyatlarga ega va sinchkovlik bilan huquqiy baholashni talab qiladigan qilmish bo'lib, ularni qasddan o'lim yetkazishning boshqa faktlaridan farqlash kerak.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyat javobgarlikni istisno etmaydi, balki ushbu qilmishni sodir etish orqali shaxs o'zi yoki boshqa shaxslar yoxud jamiyat yoki davlatning qonuniy manfaatlarini jinoyat tajovuzdan himoya qilishga intilganligi sababli tayinlanadigan jazo yengilroq sanaladi.

Har bir huquqbuzarlikning g'ayriijtimoiy mohiyati, avvalambor, uning obyekti, boshqacha qilib aytganda, insonning hayotiy faoliyati, jamiyat va davlatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Jinoyatning obyekti nafaqat qilmishning xarakteri va ijtimoiy

xavflilik darajasi, balki ko'p jihatdan uni sodir etish usulini ham belgilab beradi. Boshqa shaxsning hayotiga tajovuz qilish usuli jinoyat obyektining xususiyati bilan belgilanadi [1, 16-20-b.].

Qonun chiqaruvchi sodir etish shakllari va usullaridan qat'i nazar, hayotdan mahrum qilishni odam o'ldirish deb tan oladi. Biroq ular vositasida insonni obyektiv ravishda hayotdan mahrum qilish mumkin bo'lgan xulq-atvor usullarigina nazarda tutiladi. Jinoyat har doim ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning jami emas, balki aynan shu munosabatlar shaxsga qarshi jinoyatlarning obyekti hisoblanadi.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Jinoyat huquqi fanida odam o'ldirishni o'z ichiga olgan hayotga qarshi jinoyatlarning obyektini aniqlashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas [2].

Ayrim mualliflar odam o'ldirishning bevosita obyektini inson hayoti va sog'lig'ini qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar deb hisoblashadi. Ular tomonidan yashash huquqiga har bir insonning obyektiv huquqi sifatida qaraladi. Bunga boshqa shaxslarning har qanday odam hayotiga tajovuz qilishdan tiyilish majburiyati qarshi turadi [3, 784-787-b.].

A.N. Krasikov fikriga ko'ra, "odam o'ldirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy munosabatlarga emas, balki inson huquqlariga tajovuz qilinadi. U odam o'ldirishda tajovuzning bevosita obyekti sifatida yashash huquqini ko'radi" [4, 76-77-b.]. N.I. Zagorodnikov "inson hayoti" va hayotni qo'riqlash hamda unga bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bir tushuncha sifatida baholaydi: "Hayot, sog'liq deganda biz fiziologik ma'nodagi "hayot"ni nazarda tutmaymiz, balki ushbu atamalarini shaxsni qo'riqlashga oid ijtimoiy munosabatlarning jami sifatida tushunamiz" [5, 56-62-b.]. Bir qator mualliflar ijtimoiy munosabatlar bilan birga inson hayotini ham tajovuz obyekti deb hisoblashadi [6, 318-323-b.].

K.I. Popov yondashuviga ko'ra, "hayot va sog'liqning qimmatini tajovuz qilinaotgan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan ko'ra ancha yuqori. Bir tomondan, ushbu jinoyat sodir etish natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni, ikkinchi tomondan, mazkur jinoyatning obyekti sifatida odam o'ldirish vaqtida inson hayoti va sog'lig'i hamda tan jarohati yetkazishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni kiritadi. Ushbu masalaning yana bir nazariy yechimi faqat ijtimoiy munosabatlarning qo'riqlanadigan obyekti sifatida tan olinishi insonning qimmatiga oid axloqiy qoidalar va jinoyat qonunining bevosita ko'rsatmalariga ziddir" [7].

Yakuniy nuqtayi nazar yanada ishonchliroq bo'lib, bunda inson hayoti nafaqat huquqiy normalar bilan qo'riqlanadigan subyektiv huquq, balki mustaqil ijtimoiy, ma'naviy qadriyat hamdir. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam o'ldirishning obyekti boshqa odam hayoti hisoblanadi. Jinoyat huquqida inson hayoti faqatgina biologik, tabiiy jarayon emas, balki ijtimoiy guruh sifatida ham ko'rib chiqiladi, chunki inson jamiyat a'zosi va ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi sanaladi.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar, muayyan manfaatlar va ne'matlar, masalan, hayot, sog'liq va h.k. Ko'rib chiqilgan jinoyat tarkibining bevosita obyekti sifatida ham ijtimoiy, ham biofizik mazmunini nazarda tutgan holda tajovuzchining hayoti tan olinishi kerak.

Jinoyatning bevosita obyekti – hayot uning biologik namoyon bo'lishida bevosita idrok etilishi mumkin. Uning mavjudligi yoki yo'qligi tibbiyot fanining zamonaviy yutuqlari asosida aniqlanadi.

JKning 100-moddasida keltirilgan odam o'ldirish deganda mudofaalanuvchi, uchinchi shaxslar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sodir etilgan qilmish nazarda tutiladi.

Tajovuzchini hayotidan bunday qasddan mahrum qilish so'zsiz tajovuzning xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib emas. Bu turdagi odam o'ldirishning aynan tajovuz obyekti jinoyatning ijtimoiy xavfliligini belgilaydi. Bu, avvalo, insonning eng qimmatli ne'mati – hayotini yo'qotishida ifodalanaadi.

Mudofaa holatida odam o'ldirishning bevosita obyekti tajovuzchining hayoti bo'lib, bunda jabrlanuvchining biror-bir tavsifi rol o'ynamaydi. Har qanday odamning hayoti har doim bebaho ne'mat bo'lib, jabrlanuvchining u yoki bu tavsifiga bog'liq emas. Odam o'ldirish obyekti qimmatini va ahamiyatini odam o'ldirish turiga qarab hech qanday o'zgarishlarni boshdan kechirmaydi.

Tajovuz obyekti jinoyatning obyektiv tomonini, ya'ni ijtimoiy xavfli harakatning xarakteri va zararli oqibatlar turi, mazmuni va o'ziga xosligini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bu qaysidir ma'noda qilmishning xavflilik darajasini belgilaydi.

JKning 100-moddasida nazarda tutilgan odam o'ldirishning obyektiv tomoni quyidagi belgilar mavjudligi bilan tavsiflanadi: mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati; tajovuzchining o'limi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibat; harakatlar va ko'rsatilgan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Zaruriy mudofaa tajovuzni qaytarishdan iborat. Mudofaani qo'llash asosi sifatida tajovuz ijtimoiy xavfli harakat usuli bilan sodir etiladi.

Ijtimoiy xavfli tajovuzni harakatsizlik bilan qaytarish mumkin emas. Ammo tajovuzchining salbiy ta'sirlaridan qochish, masalan, qochish, huquq-tartibot idoralari yordam so'rab murojaat qilish orqali oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik mumkin. Biroq ijtimoiy xavfli tajovuzlardan qochish yoki boshqa shaxslardan yordam so'rash imkoniyatidan qat'i nazar, o'zini himoya qilish huquqi subyektga tegishlidir.

Mudofaalanuvchining manfaatlariga tajovuz qilgan shaxsga faqat faol harakatlar orqa-



li zarar yetkazish mumkin. Faqatgina faol mudofaa ijtimoiy munosabatlarga nisbatan oqibatlarining bartaraf etilishini ta'minlaydi. Faol mudofaani zarar yetkazmasdan qarshi turish deb tushunish xatodir. Bu fikr zaruriy mudofaa mazmuniga mos kelmaydi. Ya'ni uning noqonuniy shakli sifatida mudofaadan chetga chiqish ruxsat etilgan chegaradan tashqariga chiquvchi harakat natijasida imkonlidir.

Ushbu qilmish uchun zaruriy shart mavjud bo'lib, bu sodir etish shart-sharoiti, ya'ni huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ijtimoiy xavfli tajovuz yoki to'g'ridan to'g'ri tajovuz tahdididir [8, 62-b.].

Zaruriy mudofaa shart-sharoiti nafaqat jinoiy tajovuz, balki mudofaalanuvchining ushbu tajovuzni qaytarish kuchlari, vositalari va imkoniyatlari, shuningdek, tajovuzchi va mudofaalanuvchining kuchlari nisbatini belgilaydigan boshqa obyektiv omillarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nisbatan qulay va noqulay himoya sharoitlari farqlanadi. Bu zarar yetkazishning chegaralari, shuningdek, ulardan chetga chiqishga sezilarli ta'sir qiladi.

Mudofaa holati haqida so'z ketganda, zaruriy mudofaa yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha qilmishlar, shu jumladan, tarkibiga vaqt, joy, vositalar va obyektiv tomonning boshqa fakultativ belgilarini o'z ichiga olishini nazarda tutish lozim.

Bunday belgilar ko'rib chiqilayotgan jinoyatning zaruriy belgilariga tegishli emas. Bu, shubhasiz, ular o'zlari tajovuzning ichki mazmunini o'zgartirmasliklari va shuning uchun JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning shart-sharoitiga taalluqli emasligi bilan bog'liq. Ular ushbu tarkibdan tashqarida joylashgan. A.V. Naumovning fikricha, "Shu bilan birga, jinoiy tajovuz sodir etilgan joy, vaqt va vaziyat mudofaalanuvchining tajovuz xarakteri va xavfliligini baholashda xato yuzaga kelishiga hissa qo'shganda, ular mudofaa holati jinoiy bo'lmagan qilmish deb tan olish uchun asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi" [9, 73-b.].

Qonun o'rganilayotgan tarkibning zaruriy belgisi sifatida obyektiv tomonga taalluqli bo'lgan na usul va na qurollarni kiritgan. Bundan kelib chiqadiki, harakat har qanday vositalar yordamida har qaysi usulda amalga oshirilishi mumkin. Biroq bu harakatlar ruxsat etilgan zaruriy mudofaa chegaralaridan tashqariga chiqadi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish obyektiv tomonining ikkinchi belgisi ijtimoiy xavfli oqibat – tajovuzchining o'limi hisoblanadi. Ushbu natija JKning 100-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan. Binobarin, mazkur jinoyat faqat tajovuzchining o'limi kelib chiqqan taqdirda, tugallangan deb tan olinishi mumkin, chunki ushbu modda tuzilishiga ko'ra moddiy tarkibli jinoyat sanaladi.

Ko'rsatilgan oqibatlar bo'lmagan taqdirda, aybdorning to'g'ri qasd bilan sodir etilgan va tajovuzchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan harakatlari jinoyatga suiqasd sifatida ko'rib chiqilishi va JKning 25-moddasi orqali 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish obyektiv tomonining uchinchi zaruriy belgisi mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati va yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanishdir [10, 74-b.].

Bunda bir jinoyat – odam o'ldirishning og'irroq (JK 97-modda) va xavfliligi kamroq (JK 100-modda) tarkiblari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normalarining raqobatlashuvi vaziyati yuzaga keladi. Bunday holda jinoiy qilmishlar ikkita raqobatlashuvchi huquqiy normalar bilan qamrab olinadi, ammo ulardan faqat bittasining belgilariga to'g'ri keladi.

Ushbu turdagi raqobatning umumiy qoidalariga tayanib, yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibini nazarda tutuvchi norma, ya'ni JKning 100-moddasi dispozitsiyasida belgilangan yengillashtiruvchi tarkib qo'llaniladi.

Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun uning subyektiv tomonini to'g'ri aniqlash muhim rol o'ynaydi. Subyektiv tomon qilmishning kvalifikatsiyasi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan asosiy belgidir.

JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyektiv tomoni masalasi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish tushunchasi masalasi bilan birga tahlil qilinadigan eng murakkab jihatlardan hisoblanadi. Muayyan ishlar bo'yicha tegishli organlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asosligi ushbu masala bo'yicha to'g'ri xulosaga kelish bilan bog'liq.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishning subyektiv tomoni subyektivning o'z harakatlari va ularning sodir etilishi natijasida kelib chiqqan jabrlanuvchining o'limiga bo'lgan ruhiy munosabati bilan ifodalanadi [11, 252–256-b.]. Mudofaadan chetga chiqishda hayotga qarshi jinoyatning muayyan tarkibini himoyaning tajovuz usuli va ijtimoiy xavfliligi darajasiga nomutanosibliyi bilangina aniqlash imkonsizdir. Ushbu obyektiv faktlarga nisbatan shaxsning ruhiy pozitsiyasini aniqlash va asoslash ham talab qilinadi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishning obyektiv tomoni tajovuzning xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasiga aloqador bo'lmagan qasddan qilingan harakatlar va tajovuzchiga ortiqcha zarar yetkazishda, boshqacha qilib aytganda, bilaturib mudofaa zaruriyligini keltirib chiqarmagan zarar yoki sodir etilgan tajovuz tahdidiga nomutanosib bo'lgan zararda ifodalanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, vaziyatlarining katta qismida zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqib odam o'ldirish egri qasd bilan sodir etiladi. Bunda aybdor himoyani amalga oshirgan holda ijtimoiy xavfli harakat qilayotganini angelaydi, qilmish natijasida tajovuz qilgan shaxsga jabrlanuvchi xohlaganidan ortiqcha va shart-sharoit ham-

da himoya usuliga mutanosib kelmaydigan zarar yetkazilishini taxmin qiladi. Shunga qaramay, aybdor bu zararining kelib chiqishini istamaydi, lekin ongli ravishda bunga yo'l qo'yadi.

Shu bilan birga, odam o'ldirish to'g'ri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin. Biroq to'g'ri qasd bilan himoyadan chetga chiqishga doir jinoyatlar amaliyotda egri qasd bilan sodir etiladiganlariga qaraganda kamroq uchraydi [12, 96-b.].

Bu tajovuzni qaytarishda hujum qiluvchining o'limi mudofaalanuvchi harakatlarining yakuniy maqsadi hisoblanmasligi bilan izohlanadi. O'zini himoya qilib, u ongli ravishda nomutanosib zararining kelib chiqishiga yo'l qo'yadi.

Mudofaalanuvchi, qoida tariqasida, chegaralari buzilgan mudofaa tezkor va juda ham hissiy darajada o'tishi sababli tashvishli, hayajonlangan holatda bo'ladi. Shunday qilib, umumiy qoidaga ko'ra, mudofaalanuvchida jabrlanuvchining o'limi shaklida ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishi istagi bo'lmaydi.

Tajovuzchiga zarar faqat mudofaa vositasida yetkazilishi sababli mudofaalanuvchini ko'pincha aniq bir zarar bilan emas, balki qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarini xavfdan himoya qilishi mumkin bo'lgan har qanday zarar qoniqtiradi.

To'g'ri qasd jabrlanuvchi o'zining tajovuzkor qilmishlari bilan, asta-sekin, aksariyat hollarda, ma'lum bir yopiq makonda salbiy, toqat qilib bo'lmaydigan vaziyatni keltirib chiqaradigan holatlarga xosdir va hujum qiluvchini hayotdan mahrum qilishga intilib, jabrlanuvchining harakatlarini tahdid, kaltaklash bilan ogohlantirib, o'zini himoya qilishga harakat qiladi.

To'g'ri qasd uchinchi shaxslarning hayotiy ahamiyatga ega manfaatlarini o'ta xavfli hujumdanda mudofaa qilishda mudofaalanuvchi hujumchiga ongli ravishda og'ir zarar yetkazgan holatga ham xos.

JKning 100-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik ijtimoiy xavfli

tajovuz yoki jabrlanuvchi tomonidan bunday tajovuzning haqiqiy xavfi yaratilishi ta'siri ostida sodir etiladi. Tajovuz boshlanishigacha, jinoyatchi jinoyat sodir etishni rejalashtirmaydi va unga tayyorgarlik ko'rmaydi.

Shunday qilib, ushbu huquqbuzarlik hujumga sabab bo'lgan ichki qo'zg'alish paytida sodir etiladi, bu esa unga tayyorgarlikni istisno qiladi. Ushbu qoida jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyotida umum tan olingan.

JKning 100-moddasi dispozitsiyasida vazifa ham, motiv ham subyektiv tomonning ajralmas belgilari sifatida nomlanmaydi. Shunga qaramay, *sud amaliyoti materiallarini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning motiv va maqsadini o'ziga o'xshash jihatlarini aniqlovchi belgisi sifatida ko'rsatib o'tadi*, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Maqsad va motiv JKning 100-moddasi dispozitsiyasida belgilanmagan bo'lsa-da, JKning 37-moddasida maxsus maqsad keltirilgan bo'lib, u huquq bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarni himoya qilishdir.

Jabrlanuvchining ijtimoiy xavfli harakati tufayli kelib chiqqan harakatlarni sodir etishda bunday maqsadning yo'qligi ushbu harakatni JKning 100-moddasiga muvofiq tavsiflash imkoniyatini istisno qiladi. Mudofaa chegaralaridan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishda maqsad tarkibning zaruriy belgisidir.

Jinoyatning motivi – jinoyat sodir etish orqali maqsadga erishish uchun ongli ichki istakdir. Insonning har qanday harakati, aslida, ongli va irodaviy xulq-atvor sanaladi. Inson o'zi uchun maqsadni belgilaydi, so'ngra unga erishish uchun vositalarni topadi [13].

JKning 37-moddasiga binoan, mudofaa-lanuvchining maqsadi shaxs, uchinchi shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishdir. Himoya chegarasidan atayin chetga chiqqanning maqsadi tajovuzchiga zarar yetkazish orqali bir vaqtning o'zida shaxsiy, uchinchi shaxslar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Biroq bu zarar

ruxsat etilgan chegaralardan obyektiv ravishda chetga chiqadi.

Aybdor JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etgan holda, tajovuzga chek qo'yish maqsadida harakat qiladi, lekin maqsadni ijtimoiy xavfli tarzda amalga oshirayotganini angelaydi. Shunday qilib, harakatlarning maqsadi huquq bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarni tajovuzdan himoya qilish va uni bostirish hisoblanadi, bunda maqsadga erishish usuli ijtimoiy xavfli ekanligi anglanadi. *Motiv maqsad bilan bevosita bog'liqdir.*

Motiv va maqsadning o'zaro aloqasi harakat asosini tashkil qiladi, unga muayyan mantiqiy ma'no beradi. Motiv va maqsad o'zaro bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Harakat istagi sifatida motiv o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatda motiv tajovuz bilan bog'liq. Jinoiy tajovuz har doim ijtimoiy munosabatlar uchun tahdidni yuzaga keltiradi [14, 3-15-b.].

Ushbu tahdid uni yo'q qilishni talab qiladi. O'z-o'zini himoya qilishdan chetga chiqishda aybdor ijtimoiy xavfli harakatlar bilan hujumni bartaraf etayotganligini angelaydi. Ma'lumki, harakat motivi harakat jinoyat qonuni bilan taqiqlangan taqdirdagina jinoyat motiviga aylanadi [15, 3962-b.]. Ya'ni zaruriy himoya chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirish g'ayriijtimoiy motivga ega.

### **Xulosalar**

Xulosa qilish mumkinki, huquqni qo'llash amaliyotida qonunni bir xil va aniq qo'llash bo'yicha eng muhim tamoyillardan biri buzilmoqda, chunki sudlar JKning 37-moddasi 1-qismidagi normani turlicha qo'llamoqda va talqin qilmoqda. Jinoiy va qonuniy himoyani farqlash muammolari qonunchilik va sud amaliyotida to'liq hal qilinmagan. Ushbu farqlashning yo'qligi xato va qarama-qarshi amaliyot ehtimolini keltirib chiqarmoqda. Bu esa zaruriy mudofaa to'g'risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Nazarimizda, JKning 37-moddasi 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi kerak: “Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog’ida har qanday zarar yetkazish, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo’lsa va bunday tajovuz mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo’lgan zo’rlik yoki shunday zo’rlik bilan bevosita tahdid qilish bilan bog’liq bo’lgan bo’lsa, jinoyat deb topilmaydi”.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

*Birinchi*, zaruriy mudofaa – tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish yo’li bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy xavfli tajovuzdan qonuniy himoyadir. Zarar mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxslarning shaxsi va huquqlari, jamiyat yoki davlatning qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini ijtimoiy xavfli tajovuzdan himoya qilishda yetkaziladi. Bunda tajovuz mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo’lgan zo’rlik yoki bunday zo’rlikning bevosita tahdidi bilan bog’liq bo’lishi, shu bilan birga, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga yo’l qo’yilmagan bo’lishi kerak.

*Ikkinchi*, qonuniy zaruriy mudofaa mudofaa harakatlarining jinoyat huquqi nazariyasida zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlari, deb ataladigan muayyan talablarga muvofiqligini anglatadi. An’anaga ko’ra, jinoyat huquqi nazariyasida zaruriy mudofaaning qonuniyligi shartlari ijtimoiy xavfli tajovuz va himoya bilan bog’liq ikki guruhga bo’linadi.

*Uchinchi*, davlat yoki jamoat manfaatlari yoki mudofaalanuvchining o’zi va boshqa har qanday shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tahdid soladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardan zaruriy mudofaaga yo’l qo’yiladi. Shaxs qasddan hujum qo’zg’atgan hollarda zaruriy mudofaa holati tan olinmaydi.

*To’rtinchi*, qonuniylikning tajovuzga tegishli shartlari sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- tajovuzning ijtimoiy xavfliligi uni sodir etish paytida u hayot uchun real xavf tug’dirganligi yoki xavfli usulda sodir etilganligini anglatadi;

- tajovuz – bu har doim faol harakatdir;

- tajovuzning mavjudligi (allaqachon boshlangan, ammo hali tugamagan) – bu ma’lum bir vaqt oralig’i bo’lib, uning davomida shaxs tajovuzdan himoya qilish huquqiga ega bo’ladi. Har bir vaziyatda boshlang’ich va tugash paytlari aniqlanishi kerak;

- tajovuzning haqiqiyliigi. Bu shuni anglatadiki, tajovuz real mavjud bo’ladi, boshqacha qilib aytganda, bu mudofaalanuvchining tasavvuri mahsuli emas. Agar shaxs o’zini tasavvur qilingan hujumdan (xayoliy mudofaa) mudofaa qilgan bo’lsa, jinoiy javobgarlik masalasi faktik xato ahamiyati to’g’risidagi qoidalarga muvofiq hal etiladi.

*Beshinchi*, qonuniylikning tajovuzdan himoya qilishga oid shartlari:

- zararining uchinchi shaxslarga emas, balki faqat tajovuzga yetkazilishi. Bu zaruriy mudofaani oxirgi zaruratdan ajratib turadigan belgilardan biridir;

- mudofaaning o’z vaqtidaligi – mudofaaga tajovuzning boshlangan va hali tugamagan bo’lishiga yo’l qo’yiladi;

- javob harakatlarining maqsadi – ijtimoiy munosabatlarni ularga zarar yetkazishdan himoya qilishdir;

- himoyaning mutanosibligi – kelib chiqqan zarar tajovuzning xususiyati va ijtimoiy xavfli darajasiga mos keladi.

*Oltinchi*, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deganda tajovuzning xarakteri va xavfliligiga yaqqol mos kelmaydigan qasddan qilingan harakatlar tushuniladi. Qonuniy va zaruriy mudofaani uning chegaralaridan chetga chiqishdan ajratib turadigan chegara tajovuzchiga qasddan zarar yetkazishdan iborat bo’lib, bu zarar tajovuzni qaytarish yoki chek

qo'yish zarurati tufayli obyektiv ravishda kelib chiqmaydi.

*Yettinchi*, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- jinoyat obyekti inson hayoti hisoblanadi. Shu bilan birga, "maxsus" jabrlanuvchining mavjudligi zarur. Bu obyektiv ijtimoiy xavfli tajovuzni sodir etgan shaxsdir;

- jinoyatning obyektiv tomoni faqat faol harakatlarda ifodalanadi. Ularning natijasi tajovuzkorning o'limidir. Bu yerda zaruriy

mudofaa chegarasidan chetga chiqish faktini aniqlash kerak;

- jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, u bevosita tajovuz amalga oshirilayotgan shaxs yoki boshqa shaxslar hujumini bartaraf etishga yordam beruvchi shaxs;

- jinoyatning subyektiv tomoni aybning qasddan qilingan shakli bilan tavsiflanadi. Aksariyat hollarda qasd egri bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs tajovuzchining o'limi kelib chiqishini istamaydi, biroq unga yo'l qo'yadi yoki befarq munosabatda bo'ladi.

## REFERENCES

1. Avdeyeva Ye.V. Neobkhodimaya oborona: aktual'nyye voprosy zakonodatel'noy reglamentatsii i pravoprimeneniya [Necessary defense: current issues of legislative regulation and law enforcement]. *Rossiyskiy sud'ya – Russian Judge*, 2019, no. 1, pp. 16–20.
2. Merkur'yev V.V. Ugolovnoye pravo: neobkhodimaya oborona [Criminal law: necessary defense]. 2019.
3. Shaymardanova A.A. Zhizn' kak ob'yekt ugolovno-pravovoy okhrany [Life as an object of criminal legal protection]. *Alleya nauki – Alley of Science*, 2018, vol. 1, no. 4, pp. 784–787.
4. Tomin V.T. et al. Kommentariy k ugolovnomu kodeksu RF [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. In 3 vols. 2016, vol. 1, general part.
5. Zagorodnikov N.I., Naumov A.V. Teoreticheskiye osnovy klassifikatsii prestupleniy v ugolovnom prave [Theoretical foundations of the classification of crimes in criminal law]. *Izvestiya vysshikh uchebnykh zavedeniy. Pravovedeniye – News of Higher Educational Institutions. Jurisprudence*, 1983, no. 2, pp. 56–62.
6. Kharabara I. V. Ob'yekt prestupleniya i yego vidy [Object of crime and its types]. *Obrazovaniye i pravo – Education and Law*, 2020, no. 6, pp. 318–323.
7. Popov K.I. Aktual'nyye voprosy obstoyatel'stv, isklyuchayushchikh prestupnost' deyaniya [Current issues of circumstances excluding the criminality of an act]. *Yuridicheskaya nauka – Legal Science*, 2015, no. 3.
8. Mikhaylov V.I. Vypolneniye professional'nykh funktsiy kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Performance of professional functions as a circumstance excluding the criminality of the act]. *Ugolovnoye pravo – Criminal law*, 2013, p. 62.
9. Naumov A.V. Rossiyskoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. General part. Moscow, Prospekt Publ., 2014, p. 11.
10. Mikhaylov V.I. Vypolneniye professional'nykh funktsiy kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Performance of professional functions as a circumstance excluding the criminality of an act]. *Ugolovnoye pravo – Criminal Law*, 2013, p. 74.
11. Musina R.R. K voprosu ob effektivnosti instituta neobkhodimoy oborony [On the issue of the effectiveness of the institution of necessary defense]. *Tatishchevskiy chteniye: aktualnyye problemy nauki i praktiki – Tatishchev Readings: Current Problems of Science and Practice*, 2018, pp. 252–256.
12. Naumov A.V. Rossiyskoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. General part. Moscow, Prospekt Publ., 2014, p. 96.

13. Revin V. et al. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Special part. Moscow, Litres Publ., 2022.

14. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) as a Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. ISSN 2693-0803. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03Issuep.03-15.

15. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.

16. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, December, vol. 12, Suppl. iss. 3, p. 528.

**YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**  
**ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**  
**REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**2023-yil 3-son**

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Y. Mahmudov, E. Mustafoyev

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 27.09.2023-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 17,3 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 71.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.